

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.Toirov	
Texnosivilizatsiya jarayonining ijtimoiy-falsafiy talqini	109
B.Mirzaraximov	
Turizmning axloqiy-estetik mohiyatini tadqiq etishga oid metodologik yondashuvlar	117
M.T.Voxidova	
Xondamir asarlarida axloq va adolat g'oyalarining falsafiy talqini	123
D.E.Normatova	
IX-XII asrlarda o'rta osiyoda ilmiy-axloqiy tafakkur rivoji	127
B.X.Tolipov	
Innovatsion iqtisodiy raqobat muhitining yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri	131
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyatning ijtimoiy falsafiy mazmuni	135
X.X.Yuldashxodjayev	
Musoxon Dahbidiy merosida davlat boshqaruvi va ma'naviy etakchilik hamda ijtimoiy mas'uliyatning zamonaviy talqini	140
G.I.Hashimova	
Harbiy ijtimoiy ish – davlat va fuqarolik institutlarining kontseptual-nazariy, siyosiy-huquqiy faoliyati tizimi sifatida	144
K.Shadmanov	
Literary and rhetorical traditions of latin and greek languages on the formation of english philosophical literature	149
A.A.Mo'ydinov	
Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini	153
A.A.Sayitxonov	
Tadbirkorlik faoliyatida innovatsion usullarning zaruriyati	159
G.M.Bozorova	
Muhammad Sharif Jurjoniyl ilmiy merosi va uning inson tafakkuri rivojidagi falsafiy ahamiyati	163
D.A.Sobirov	
Inson va mehnat: falsafiy tafakkur tarixida izlanish	168
Z.I.Narziev	
Aziziddin Nasafiyning tasavvuf ontologiyasi va ontologik konsepsiyalarga munosabati	177
X.M.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	183
S.Q.Qaxxorova	
Zamonaviy yoshlar ma'naviyati, axloqiy qadriyatlar va ruhiy barkamollikka yo'l	188
J.J.Shodiyev	
Inson ruhiy barkamolligi va jamiyat barqarorligini falsafiy yondashuv orqali rivojlantirish	192
N.U.Nurmatova	
Abdulkholiq G'ljduvoniylning "Maqomoti Yusuf Hamadoniyl" asari tahlili	196
A.A.Azimov	
Rudakiyl falsafiy qarashlarida ijtimoiy adolat va inson tarbiyasi	200
S.H.Pulatov	
Abu Homid al-G'azzoliyl va Ibn al-Arabiyl ilmiy merosining keyingi davrlarda tadqiqi va bugungi kundagi ahamiyati	206
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiyl ta'limotida borliq nazariyasi.	211
F.A.Qalandarova	
Ijtimoiy tabaqalanish evolyutsiyasi va uning zamonaviy jamiyatdagi yangi ko'rinishlari	217
S.R.Kutlimuratov	
Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi	222
R.Sh.Bozorova	
Yangi O'zbekistonda ayollar intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar, qadriyatlar va gender adolatning ahamiyati	226
Z.A.Ergasheva	
Yangi O'zbekistonda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarurati	230
Sh.F.Polvonov	



UO'K: 340.12:37.091.3(575.1)

YANGI O'ZBEKISTONDA HUQUQIY TA'LIM VA AXLOQIY TARBIYANI UYG'UNLASHTIRISH ZARURATI**НЕОБХОДИМОСТЬ ГАРМОНИЗАЦИИ ПРАВОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ И НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****THE NEED TO HARMONIZE LEGAL EDUCATION AND MORAL EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN****Ergasheva Zilola Abduxakimovna** 

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, bog'cha yoshidan boshlab bolaga huquqiy tushunchalar tushuntirib borilishi kerakligi, bolalar oilada, maktabgacha ta'lim muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy nome'yor ekanligi to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarurligiga e'tibor qaratilgan.

Аннотация

В статье подчёркивается, что правовое образование и нравственное воспитание – непрерывный процесс, и правовые понятия необходимо разъяснять ребёнку с детского сада. Важно, чтобы дети знали правила поведения в семье и дошкольном образовательном учреждении, получали элементарные представления о моральных и некоторых правовых нормах, а в дальнейшем эти знания должны расширяться и углубляться, приобретая ярко выраженный правовой характер.

Abstract

This article emphasizes that legal education and moral upbringing are a continuous process, and legal concepts should be explained to a child from kindergarten age. It is important that children be aware of the rules of conduct in the family and in preschool educational institutions, receive basic understanding of moral and some legal norms, and in the future this knowledge should be expanded and deepened to acquire a clearly expressed legal character.

Kalit so'zlar: Huquqiy ta'lim, axloqiy tarbiya, uzluksiz jarayon, ijtimoiy tengsizlik, falsafa, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat, farovonlik, ehtiyoj.

Ключевые слова: Правовое образование, нравственное воспитание, непрерывный процесс, социальное неравенство, философия, экономическое развитие, социальная справедливость, процветание, потребность.

Key words: Legal education, moral education, continuous process, social inequality, philosophy, economic development, social justice, prosperity, need.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy hayot bilan hamnafas holda fan, texnika, madaniyat, jumladan ta'lim sohasi dadil qadamlar bilan rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali yig'ilishda Prezident Sh.Mirziyoyev jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida fikr bildirar ekan: "Biz jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzluksiz davom ettirishimiz zarur. Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta'lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko'nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi zarur", deb ta'kidladi.

Huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, bog'cha yoshidan boshlab bolaga huquqiy tushunchalar tushuntirib borilishi kerak. Bolalar oilada, maktabgacha ta'lim muassasalaridayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshishi shuni ko'rsatadiki, ta'limning har bir bosqichida yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda huquqiy ta'lim va axloqiy tarbiyani rivojlantirishga erishish hamda mazkur jarayonda oilada amalga oshiriladigan tarbiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

FALSAFA

Huquqiy ta'lim – bu fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish va ularni o'z huquqlari hamda majburiyatlarini tushunishga yo'naltirish jarayonidir. U insonlarning shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Huquqiy ta'limning mazmun-mohiyati, axloqiy-huquqiy asoslari ko'plab aspektlarni qamrab oladi.

Huquqiy ta'limning mazmuni fuqarolarni huquq va majburiyatlar bilan yaxshi tanishtirishdan iborat. U insonlarga o'z huquqlarini bilish, ularni himoya qilish va shuningdek, boshqa shaxslarning huquqlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Bundan tashqari, huquqiy ta'lim jamiyatdagi adolatni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. U fuqarolarning faolligini oshirish, ularning ijtimoiy masalalarda ishtirok etishini rag'batlantirishga yordam beradi.

Axloqiy tarbiya bo'lsa, insonning ijtimoiy hayotida, jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonidir. U insonlar orasidagi munosabatlarni, ularning harakatlari va xulq-atvorini belgilaydi. Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – farovon, adolatli va ma'naviy barkamol jamiyatni barpo etishdir.

Axloqiy tarbiya insonning shaxsiy rivojlanishi, oilaviy va ijtimoiy munosabatlari, madaniyatli hayot kechirishini ta'minlash bilan bog'liq. Axloq – bu odamlarning bir-biriga nisbatan munosabati, ularning xulq-atvori, odob-axloqi va ma'naviyatini belgilaydi. Shu bois, axloqiy tarbiya insonning ichki dunyosini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy tarbiya jarayonida farzandlarga yoshligidan boshlab kerakli qadriyatlarni o'rgatish muhimdir. Misol uchun, muhabbat, samimiyat, adolat, samimiylik kabi tuyg'ularni shakllantirish kerak. Bu qadriyatlar farzandlarga atrofidagi dunyo bilan munosabatda qanday bo'lish kerakligi haqidagi bilimlarni beradi. Oila ichida beriladigan axloqiy saboqlar farzandlar uchun juda muhimdir. Ana shundan kelib chiqib, axloqiy tarbiya faqat oila yoki maktab bilan cheklanib qolmaydi. Jamiyatning har bir a'zosi –pedagoglar va ota-onalar farzandlarga yaxshi namuna bo'lishlari kerak. Ma'naviy axloq ko'pincha jamiyatdagi muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, axloqiy tarbiya zamonaviy dunyo sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bugungi globallashuv davrida insonlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni moslashtirish talab etiladi. Ma'naviy axloqsizlikka qarshi kurashish uchun har birimizning mas'uliyatimiz bor: biz o'zimizning xulq-atvorimizni doimo nazorat qilib borishimiz kerak. Natijada, axloqiy tarbiya jamiyat rivojining asosi hisoblanadi va har bir farzand o'z navbatida bunday tarbiyadan o'tayotganlari inobatga olib yashashi lozim. Axloqli inson – bu jamiyatni mustahkamlashga hissa qo'sha oladigan shaxsdir; ular orasida o'rnatilgan munosabatlar samaradorligi ham shundan kelib chiqadi. Demak, axloqiy tarbiya biz uchun nafaqat shaxsiy rivojlanish manbai balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham zarur shart-sharoitdir.

Axloqiy talab huquqiy qonun-qoidalarda o'z aksini topadi, deyish bilan biz axloq va huquqning o'zaro mustahkam aloqaga ega ekanini e'tirof etamiz. Aslida ham shunday. Ma'naviy kamolot yuksaklikka, ilg'or rivojlanishga intilishdir, jamiyat taraqqiyotiga, tenglik, teng huquqlilik, ozodlik, adolat, inson qadr-qimmatini, haq-huquqini himoya qilishga intilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Inson dunyoga ma'lum bir maqsad bilan kelmaydi. U o'zligini idrok etgandan so'ng hayotdan, yashashdan ma'no izlaydi va bu narsa uning hayotining mazmunini tashkil etadi. Inson hayotda yashar ekan, u doimo komillikka intiladi. Komil inson bo'lib etishishida esa axloqiy, estetik va huquqiy tarbiyaning ahamiyati katta. Huquqiy tarbiya har bir shaxsning umumiy madaniyati, ya'ni uning siyosiy, axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy salohiyatlarini inobatga olingan holda olib borilganda, ancha samarali bo'ladi. Huquqni bilish va u haqdagi tasavvurlar kishiga odatda huquqqa zid narsani qonuniy narsadan farqlashida, voqea-hodisani huquqiy jihatdan to'g'ri baholashida va uning ehtimol bo'lgan huquqiy oqibatlarini tasavvur etishida yordam beradi. Insonning hayotiy tajribasi huquq haqidagi tasavvurlarning muhim manbai hisoblanadi. Huquqshunos olim A.Saidovning fikricha: "Voyaga yetmaganlar o'zlari kuzatib boradigan huquqiy faktlarga nafaqat ularning qo'llanish amaliyoti nuqtai nazaridan baho berishadi. Agar bunday amaliyot huquqda yozib qo'yilganiga nisbatan farq qiladigan bo'lsa, unda bu yoshlarda huquqiy ko'rsatmalarning shunchaki rasmiy narsa ekanligi to'g'risidagi tasavvurlarni, "ha, qonun - boshqayu, hayot butunlay boshqa" degan fikrni hosil qilishi mumkin".

Huquqiy tarbiya bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan o'zbek huquqshunos olimlari U.Tadjixanov va A.Saidovlar: "Huquqiy-axloqiy tarbiya xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda – insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak

hurmat va e'tibor, sabr-toqat kabi ma'rifat va haqiqat tuyg'ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo'lida fidokorona mehnat qilishga yo'naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir", – deb qayd etishgan. Mazkur fikrdan malum bo'ladiki, huquqiy tarbiya faqat tor va formal sof yuridik tushuncha emas. Huquqiy tarbiya jamiyatimizda mavjud milliy qadriyatlar, ma'naviyat kabi ustuvor tushunchalar bilan bevosita bog'liqligi bois ham huquqiy tarbiyani yuksaltirish bugungi kundagi ustuvor vazifalardan sanaladi.

Huquqiy tarbiyaning falsafiy tahlili bilan shug'ullangan olim D.Q.Adilova quyidagicha mulohaza bildiradi: "...huquqiy tarbiya – bu obyektning yuridik tayyorgarligi darajasi va uning o'z siyosiy, iqtisodiy va madaniy huquq hamda erkinliklarini amalga oshirishdir. Obyektning huquqiy tarbiyaning mezoni nafaqat uning yuridik va huquqiy normalarni bilishi, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishi hamdir". Tadqiqotchining huquqiy tarbiyaga bergan ta'rifi bir qator e'tirozlar uyg'otadi. Avvalo, huquqiy tarbiyaning "obyekti" o'rniga "subyekti" deyish to'g'ri bo'lardi. Ikkinchidan, "yuridik tayyorgarlik darajasi" iboralari o'rniga "jamiyat a'zolarining huquqiy bilim darajasi" deb gapirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, ta'rifning ikkinchi jumlasidagi "yuridik va huquqiy normalar" aynan sinonim normalar ekanligini ta'kidlash joiz.

Qonunga munosabat va huquqqa qo'yiladigan talab, huquqiy va axloqiy me'yorlar ijtimoiy hayotning umumiy ta'siri ostida shakllanadi. Ko'pgina yoshlarning jinoyati hulq-atvor qoidalarini, shu bilan birga huquqiy javobgarlik tamoyillari, uning oqibati va miqdorini bilmaslik bilan bog'liq. Masalan, ko'pgina voyaga etmaganlar orasida shunday bir qarash borki, unga ko'ra, bunday bolalarning jinoyatlari uchun ularning o'zlari emas, balki, avvalo ota-onalari, tarbiyachilari va mahalla-kuy hamda jamoatchilik javob berishadi. Aksariyat holatlarda ota-onalar o'z farzandlarining noma'qul ishlari va jinoyatlarini berkitishga harakat qiladilar, aksincha farzandlari "qobil farzand", farishtaday pokiza bola ekanligini isbotlashga urinadilar. Bunday yolg'on va xaspo'shlash esa, pirovardida yomon oqibatlarga olib kelishi muqarrardir.

Huquqiy tarbiya ma'naviy tarbiyaning muhim omilidir. Axloq ma'naviyatning asosini tashkil etadi. Inson axloqiy tarbiya jarayonlarida uning qoidalariga bevosita yoki bilvosita ravishda rioya etadi. Tabiiyki, huquqiy tarbiya ham axloq mezonlari bilan hamohanglikda olib borilsa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

Sharq madaniy hayotida hamma vaqt axloq huquqqa nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Shu sababli ham axloqiy etuklikning davlat, jamiyat, millat birligidagi o'rni va ahamiyati doim ortib boravergan. Bu esa, insonlarning axloqiy birligi tobora barqaror va mustahkam bo'lishiga olib kelgan. Manfaatlar birligi, umumiyliigi ham insonlar o'rtasidagi munosabatlar axloqiy qadriyatlarga qanchalik tayanishiga bog'liq.

Muayyan jamiyatdagi huquqiy qonun-qoidalar o'sha mintaqa xalqlari tomonidan asrlar mobaynida ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, me'yorlar, shuningdek, nisbatan umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan urf-odatlar zamirida vujudga keladi. Ko'rinib turibdiki, axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo'lsa-da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usullari har xil: axloq asosan tushuntirish, pand-o'gitlar vositasida ish ko'rsa, huquq majburlash, talab qilish va jazo choralarini qo'llaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Huquqiy tarbiya huquqiy ta'limdan ertaroq boshlanadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak huquqiy ta'lim davlatning aniq standartlari asosida davlat ta'lim muassasalarida pedagoglar tomonidan olib borilsa, huquqiy tarbiya farzand tug'ulgandan keyin ota-ona va oila a'zolari shuningdek atrofdagi jamiyat a'zolari tomonidan berib boriladi. Bu boradagi kuzatuvlar natijasiga ko'ra, har bir ota-ona (oilaning boshqa a'zolari: buvi, buva, aka-uka, opa-singillar) o'zlari bilmagan holda huquqiy targ'ibotni amalga oshiradilar. Masalan, ona farzandini o'qishga yoki biror boshqa yumushga kuzatayotganida (ayniqsa o'g'il bolalarga) "birov bilan urishib yurma, birovni narsasini olma..." va h.k. kabi nasixat qiladi. Shuningdek, "oilada yozilmagan oilaviy an'analar, axloq-odob masalalari alohida axamiyat kasb etadi". Huquqiy ta'lim orqali shaxsga o'z xatti-xarakatlarining qonun talablariga mosligi to'g'risidagi bilimlar berib boriladi. Shu bilan birga murakkab huquqiy munosabatlar to'g'risidagi tushunchalar shakllantiriladi. Huquqiy ta'lim natijasida keng omma yoki shaxs o'z hatti – harakatlarining qonuniy ekanligini tushunsa, huquq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa o'zini ongli ravishda, huquq normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishilgan bo'lib hisoblanadi. Demak, "huquqiy ta'lim bu- tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni

FALSAFA

ko'zlagan va shaxsga «guruh shaxslariga» ta'sir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya qilish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir».

Huquqiy ta'lim muayyan o'quv dasturi asosida o'quvchilarga huquq fani asoslarini o'rgatishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, uning natijasi o'quvchilarning huquqqa oid bilimlarni puxta o'zlashtirishlari, ijtimoiy – huquqiy me'yorlarning ahamiyatini izohlay olish, to'g'ri tushunish, ularning jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyatini anglash, qonunlarga nisbatan hurmat ko'rsatish kabi sifatning qaror topishi bilan belgilanadi. Ta'limning barcha turlari kabi, huquqiy ta'limning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud. B.Ziyomuhammedov va Sh.Abdullaeva huquqiy ta'lim-tarbiyani shunday ta'riflaydilar: "Huquqiy ta'lim-tarbiya insonda huquqiy bilimlarni oshirish, qonunlarni yaxshi o'zlashtirib, ularga to'liq rioya etish ko'nikmasini hosil qilishdir". Darhaqiqat, huquqiy ta'lim huquqiy bilimlarni o'zlashtirishni, amaliy ko'nikmalar va malakalar shakllanishini nazarda tutadi. Bu esa yoshlarni huquqiy jihatdan har tomonlama barkamol inson bo'lib etishishlari uchun zamin tayyorlaydi. Huquqiy ta'lim nafaqat bilim berish, balki huquqbuzarliklarni oldini olish, intizomni mustahkamlash, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish kabi vazifalarni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Huquqiy ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabat, bilim berish, bilim olish, o'rgatish – o'rganish maylida kechadigan munosabatlar tizimidir.

Huquqiy ta'lim o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyati sifatida o'zaro bog'liq ikki jarayonga – "o'qituvchi faoliyati sifatida bilim berishga va o'quvchining faoliyati sifatida bilim olishga ajraladi. Bilim beruvchi jamiyat manfaatlarini ifoda etgani holda barcha o'quv muassasalarida ta'lim berishning konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratadi. Huquqiy bilim beruvchi: ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligidan kelib chiqqan holda bilim oluvchi bilan munosabatlar oqimini insoniy fazilatlar: o'zaro hurmat, izzat-ikrom, va h.k. ruhida amalga oshirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi; huquqiy ta'limning uzluksizligi va izchilligini ta'minlaydi; huquqiy ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi; huquqiy bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantiradi".

XULOSA

Huquqiy ta'lim jarayonida bilim oluvchilar insoniyat ijtimoiy –tarixiy tajribasining muayyan jihatlarini – mafkura, siyosat, fan va huquqiy madaniyatni o'zlashtiradi. Huquqiy ta'lim jarayonida yoshlar huquqiy tarbiyalanib, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik fazilatlarini hamda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik kayfiyati shakllanadi.

Huquqiy tarbiya esa o'quvchilarda mavjud bo'lgan huquqiy bilimlar asosida faoliyatni tashkil eta olish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, unda o'quvchilarning huquq fani asoslariga oid bilimlarini mustahkamlash uchun sharoit yaratiladi, ularni kundalik faoliyatda qo'llash ko'nikmasi shakllantiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy – huquqiy faolliklarini hosil qilishga erishiladi. Shaxs huquqiy ongini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyani uzviylikda olib borishni taqazo etadi. Huquqiy ta'lim to'laqonli ravishda majburiylik xarakteriga ega bo'lsa, huquqiy tarbiyani yo'lga qo'yishda ixtiyoriylik ustuvor o'rin tutadi.

Huquqiy ta'lim bir qancha jixatlardan: "bilim beruvchining o'z fanini bilish, o'quv-tarbiya jarayonini uyushtira olishi, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini egallashi, o'quvchining aqliy rivojlanishi, uning bilish imkoniyatlarini chuqur anglab etishi va bilim oluvchining shaxsiy fazilatlarini shakllantirish yo'llarini bilishdan tarkib topadi. Huquqiy ta'lim bilim beruvchi uchun tafakkur faoliyati hamdir. U o'zini qurshab turgan olamni bilishni va ta'lim berish faoliyatini chuqurlashtiradi. U ta'limda yangi mazmun va metodlarni izlaydi. Ta'lim bilim oluvchi uchun ham, bilim beruvchi uchun ham o'zini qurshab turgan olamni bilishning bir turi hisoblanadi". Huquqiy ta'limning maqsadi har bir kishiga amaliy faoliyatda zarur bo'ladigan huquqiy bilimlarni belgilangan davlat standartlaridan kam bo'lmagan xajmda olish imkoniyatini berishdan iboratdir.

Axloqiy tarbiya yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri bu – etiketdir. Etiket – takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan munosabat hodisasi hamdir. Etiketning qamrovi keng, u ma'lum ma'noda xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zni tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha tusda muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo'yilgan xatti-harakatni taqazo etadi.

ADABIYOLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – Toshkent, Halq so'zi. 2019-yil 7-dekabr.
2. Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. – T.: Akademiya, 1998. –B. 198.
3. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. 2 tomli. 1-tom / Mas'ul muharrir akademik Sh.Z.O'razaev – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998. – B. 7.
4. Ismatova N. Fuqarolarning huquqiy madaniyatiga ta'sir etuvchi omillar (umumiy o'rta ta'lim muassasalari misolida). –Toshkent.: Fan. 2015. –B. 123.
5. Karimova O. "Huquq ta'limini o'qitish metodikasi" T.: "O'zbekiston" 2011-yil, -V. 23.
6. To'ychieva X. Shaxs huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy ta'limning o'rni va uning ilmiy-amaliy muammolari. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2009. –B. 69.
7. To'ychieva X. Shaxs huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy ta'limning o'rni va uning ilmiy-amaliy muammolari. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2009. –B. 69.